

UO‘K: 94(575.1):323 “1917/1941”

**TURKISTONNING PARCHALANISHI VA SOVET
RESPUBLIKALARINING TASHKIL ETILISHI**

Alisher Xudoyberdiyevich JALILOV

tayanch doktorant

Navoiy davlat universiteti

Navoiy, O‘zbekiston

<https://orcid.org/0009-0002-5821-7619>

jalilov-1982@bk.ru

Annotatsiya

Maqola bolsheviklar tomonidan Turkistonning parchalanishi va sovet respublikalarining tashkil etilishi masalalariga bag‘ishlangan. Ushbu sovet respublikalari Markaz tomonidan xo‘jalik imkoniyatlariga qarab ma‘lum shirkatlarga birlashtirilganligi hamda ular Sovet Ittifoqining xomashyo bazalariga aylantirilganligi chuqur tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar: milliy-hududiy chegaralanish, bolshevik, millatchi, aksilinqilobchi, sinfiy chet unsurlar, shovinizm, sovet, o‘zbek siyosiy elitasi, mahalliy rahbar kadrlar.

**РАСПАД ТУРКЕСТАНА И ОБРАЗОВАНИЕ СОВЕТСКИХ
РЕСПУБЛИК**

Алишер Худойбердиевич ДЖАЛИЛОВ

Базовый докторант

Навоийский государственный Университет

Навои, Узбекистан

<https://orcid.org/0009-0002-5821-7619>

jalilov-1982@bk.ru

Аннотация

Данная статья посвящена вопросам разделения Туркестана большевиками и образования советских республик. Глубоко проанализировано, что эти советские республики были объединены Центром в определенные кооперативы в зависимости от их хозяйственных возможностей и превращены в сырьевые базы Советского Союза.

Ключевые слова: национально-территориальное размежевание, большевик, националист, контрреволюционер, классовые враги, шовинизм, советы, узбекская политическая элита, местные руководящие кадры.

1925-yil 13–17-fevral kunlari Buxoro shahrida Butuno‘zbek sovetlarining I syezdi chaqirildi. 13-fevral kuni s‘ezdning 1-yig‘ilishida kommunistik fraksiya tomonidan 61 kishidan iborat Prezidium tarkibi saylandi. 16-fevral kuni I syezdning 4-yig‘ilishida bolsheviklar fraksiyasi taklifi bilan Markaziy Ijroiya

Komitet a'zoliciga nomzodlarning 160 kishidan iborat tarkibi tasdiqlandi. O'zSSR MIK a'zolarining 40 nafari yevropalik va 120 nafari mahalliy millat vakillaridan iborat bo'ldi. Ushbu a'zolar ichida ruslardan – Zelenskiy, Manjara, Ivanov, Jeltov, Dunaev, Znamenskiylar, o'zbeklardan – Y.Oxunboboyev, F.Xo'jayev, A.Ikromov, I.Xidiraliyev, Porso Xo'jayevlar o'rin olgan [10]. Yo'ldosh Oxunboboyev MIQ raisi, Sultonxo'ja Qosimxo'jayev, Nasrulla Mahsus Lutfullayev va Jahon Obidova uning o'rinbosarlari qilib saylandilar. S'ezd Fayzulla Xo'jayevni respublika hukumati – O'zbekiston SSR Xalq Komissarlar Soveti raisi lavozimiga tasdiqladi. 1925-yil 13-mayda 3-Butunittifoq sovetlar syezdida O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Ittifoq tarkibiga kiritildi. RKP (b) ning siyosiy byurosi Turkiston, Buxoro va Xorazm Kompartiyalari negizida O'zbekiston Kommunistik partiyasini tuzdi. Dastlabki yillarda O'zbekiston Kommunistik partiyasi tarkibida 10,8 ming a'zo va 10,5 ming a'zolikka nomzod bo'lib, ularning 55 foizi mahalliy millat vakillari edi. O'zbekiston KP (b) 1-s'ezdida Akmal Ikromov va Vladimir Ivanov O'zbekiston KP MKning mas'ul kotiblari qilib saylanganlar [8]. O'zbekiston KP (b) ning Buxoroda bo'lib o'tgan 1-Ta'sis syezdida kun tartibiga quyidagi masalalar qo'yilgan edi: 1) RKP (b) ishining yakunlari va perspektivalari to'g'risida; 2) RKP (b) Markaziy Kontrol Komissiyasining ma'ruzasi; 3) RKP (b) Markaziy Komiteti O'rta Osiyo byurosining ma'ruzasi; 4) O'zbekiston K (b) P tashkiliy byurosining hisoboti va partiyaning navbatdagi vazifalari; 5) O'zbekiston K (b) P Markaziy Kontrol Komissiyasining hisoboti va uning kelgusidagi vazifalari; 6) Dehqonlar orasida ish olib borish; 7) O'zbekistonning xo'jalik ahvoli. 8) Agitatsiya-propaganda ishi; 9) Xotin-qizlar orasida ish olib borish; 10) Milliy shakllanish .

Butun o'zbek sovetlarining I s'ezdida delegatlar soni 598 nafar, shundan 573 nafari erkak, 25 nafari ayol bo'lgan. Delegatlar umumiy sonining milliy tarkibi quyidagicha edi: ruslar – 65 nafar, qirg'izlar – 5 nafar, o'zbeklar – 404 nafar, tojiklar – 66 nafar, Buxoro yahudiysi – 1 nafar, boshqa millatlar – 47 nafar [11].

1924-yil 1-oktyabrda A.Znamenskiy Moskvadan O'rta Osiyo byurosi raisi o'rinbosari nomiga yo'llagan “O'zbekiston uchun kadrlar tanlash to'g'risida”gi xatida bo'lajak O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raisligiga nomzod

qilib Inomjon Xidiraliyev, unga muqobil nomzod esa Porso Xo‘jayev nomzodini, O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlar Soveti raisligiga Fayzulla Xo‘jayev nomzodi ko‘rsatilganini xabar qilgandi. Demak, avval boshida O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘shmitasi raisi lavozimiga Yo‘ldosh Oxunboboyev nomzodi emas, balki Inomjon Xidiraliyev nomzodi markazdan ko‘rsatilgandi. Amalda esa Y.Oxunboboyev bu lavozimga saylanib qoldi. I.Xidiraliyev emas, Yo‘ldosh Oxunboboev Markaz Ijroqo‘mi raisi bo‘lib qolganligi sababini o‘sha partiya qurultoyidayoq yuz bergan o‘zaro guruhbozlikdan ham bilsa bo‘ladi. Bu haqda RKP (b) MK O‘ta Osiyo byurosi raisi I.A.Zelenskiy I.V.Stalinga bayonnoma yozgandi. Partiya qurultoyida Markazqo‘m va uning apparatini tuzish chog‘ida oqimlar va guruhlarining o‘zaro kurashi yuz berganligi aytilgandi [7].

1925-yili O‘zbekiston KP (b) MK kotibi Akmal Ikromov O‘zbekiston Sovetlari I syezdida minbardan turib, kambag‘al va batrakdan chiqqan Yo‘ldosh Oxunboboyev nomzodini Markaz Ijroqo‘mi raisi lavozimiga tavsiya etib shunday degan edi: “Rais shunday odam bo‘lishi kerakki, har bir batrak, har bir dehqon bevosita uning huzuriga kela olishi va u bilan bemalol dardlasha olishi, dehqonlar bilan batraklar unga ishonadigan bo‘lishlari kerak... Shu boisdan biz ana shunday fazilatlarning barchasiga ega bo‘lgan nomzodni qishloq xo‘jaligi oblasti bo‘lgan Farg‘onadan topdik. Biz u yoqdan bir parcha ham eri yo‘q... Marg‘ilon uezdidagi “Qo‘shchi” soyuzida ishlovchi batrak, xuddi o‘sha o‘rtoq Oxunboboyevni topdik” [4].

Yo‘ldosh Oxunboboyev sovet O‘zbekistonining tashkiliga yarim yil ichida bo‘lgan o‘zgarishlar xususida quyidagi fikrlarini bildirgan edi: “Ilgari saylovda sho‘rolarga boylar va mushtumzo‘rlar o‘rnashib qolgan. Bir necha rayonlarda xalqning so‘rashi sho‘rolar hukumati tomonidan o‘tkazilgan yangi saylovlar yanada buni tasdiqladi. Bu rayonlarning hammasida sho‘rolarga hozirda batraklar, kambag‘allar va o‘rta dehqonlar saylandi” [2].

Shundan so‘ng mazkur tarixiy birinchi s‘ezdda kommunistik fraksiyasi topshirig‘iga binoan A.Ikromov O‘zbekiston SSR hukumati rahbarligiga nomzod to‘g‘risida nutq so‘zlaydi. U Fayzulla Xo‘jayevni ta’riflab, shunday deydi: “Xalq

Komissarlari Sovetimizning bo'lg'usi raisi avvalo shunday odam bo'lishi kerakki, unga keng mehnatkash xalq ommasi mutlaqo ishonadigan bo'lsin va uning yana boshqa fazilati ishchanlik. Ishga layoqatlilik hamda respublikamiz oldida ko'ndalang bo'layotgan og'ir vazifalarni to'g'ri hal etishga qobiliyatli bo'lishdir. Ana shu har ikkala fazilatga ega bo'lgan yagona nomzod bolsheviklar fraksiyasi tomonidan nomzodi ko'rsatilayotgan o'rtoq Fayzulla Xo'jayevdir" [1].

Shu asnoda tuzilgan yangi hukumat O'zbekiston SSR Xalq Komissarlar Soveti tarkibi quyidagicha bo'ldi:

1. Fayzulla Xo'jayev – O'zbekiston SSR XKS raisi.
2. Karimov – O'zbekiston SSR XKS raisi o'rinbosari va Ishchi dehqon inspeksiyasi xalq komissari.
3. Po'latov – O'zbekiston SSR Moliya xalq komissari.
4. A.Mavlonbekov – O'zbekiston SSR Yustitsiya xalq komissari.
5. Hojiboyev – O'zbekiston SSR Yer ishlari xalq komissari.
6. Ramziy – O'zbekiston SSR Maorif xalq komissari.
7. Levit – O'zbekiston SSR Sog'liqni saqlash xalq komissari.
8. Saidali Xo'jayev – O'zbekiston SSR Mehnat xalq komissari.
9. Aglamov – O'zbekiston SSR Xalq Xo'jaligi Markaziy Kengashi (VSNX) raisi.
10. Fayzullin – O'zbekiston SSR Savdo xalq komissari.
11. Truxan – Markaziy statistika boshqarmasi (SSU) boshqaruvchisi.
12. Burnashev – Davlat reja qo'mitasi (Gosplan) raisi.
13. Ali Xo'jayev – O'zbekiston suv xo'jaligi (Uzvodxoz) boshlig'i [5].

1925-yil 3-aprel kuni hukumat Toshkentdan Samarqand shahriga ko'chib boradi. Shunda Y.Oxunboboyev Samarqand shahrida yig'ilganlarga qarab shunday dedi: "O'zbekiston hukumatining yangi poytaxtga ko'chib kelishi sho'ro qurultoyining bir buyrug'ini ado qilishdir. Poytaxtning Samarqandga ko'chib kelishi markaziy hukumatning atrof bilan yaqin bordi-keldi qilishga sabab bo'lub aloqani mustahkam qilur. Bu yerda hukumatning ustiga sho'ro qurultoyi

tomonidan yuklangan vazifalar ishchi va dehqonlarning qatnashishlari bilan qulay bajarilur” [9].

Yo‘ldosh Oxunboboyev O‘zbekiston SSR poytaxtlari Samarqand yoki Toshkentda muhtasham kabinetlarda o‘tirmay asosiy vaqtini respublika shahar va qishloqlarida dehqonlar va ishchilar bilan turli uchrashuvlar va muloqotlar o‘tkazdi. Yo‘ldosh Oxunboboyevni Farg‘ona vodiysi, Buxoro va Samarqand, Xorazm hamda O‘zbekistonning boshqa joylarida oddiy aholi yaxshi bilgan va hurmat qilgan. Shuning uchun u tiriklik chog‘idayoq “Yo‘ldosh ota”, “O‘zbekiston oqsoqoli”, “Ota” deb e‘zozlangan. Biroq Yo‘ldosh Oxunboboyevning savodi va nazariy bilimlari yetarli darajada bo‘lmagan. Jumhuriyat oqsoqolining barcha nutq va ma‘ruzalari uning ikkita kotibi tomonidan maxsus tayyorlangan, hatto bu kotiblar unga savod chiqarishni o‘rgatgan. U rus tilini bilmaganligi uchun O‘zbekiston “parlamenti”ning Moskvadagi vakili sifatida uzluksiz 12 yil davomida O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlar Sovetining raisi Fayzulla Xo‘jayev faoliyat ko‘rsatgan. Shuning uchun ham Fayzulla Xo‘jayev 1925–1936-yillarda SSSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi raisining o‘rinbosari (oltita) ittifoqdosh respublikadan biri bo‘lgan O‘zbekiston SSR nomidan) vazifasida samarali ish olib borgan .

O‘rta Osiyoda istiqomat qiluvchi aholi O‘zbekiston SSR, Tojikiston ASSR, Turkmaniston SSR, Qirg‘iziston avtonom oblasti, Qozog‘iston ASSR o‘rtasida bo‘lindi. Natijada O‘rta Osiyoda yashovchi 8131062 nafar aholining 4702788 nafari O‘zbekiston SSR (Tojikiston ASSR ham qo‘shilgan) hududida istiqomat qilgan. Bu aholi O‘rta Osiyo aholisining 48,5 foizini tashkil etgan. O‘zbekiston SSR tashkil etilganiga qadar, o‘zbeklar O‘rta Osiyoda mavjud bo‘lgan uchta respublika hududida yashar edi. Jumladan, 1924-yili Turkiston ASSR hududida o‘zbek millatiga mansub 2389940 nafar aholi, Buxoro Xalq Sovet Respublikasida – 975565 nafar va Xorazm Xalq Sovet Respublikasida – 391800 nafar o‘zbeklar yashagan.

Fayzulla Xo‘jayev “bo‘lib tashlasang hukmronlik qilish oson bo‘ladi” degan niyat yashirib yotgan siyosatga, ya’ni O‘rta Osiyoda milliy-davlat chegaralanishi o‘tkazish rejasining tub mohiyatini boshqa rahbarlarga qaraganda yaxshiroq

tushungan edi. Shuning uchun ham u, tarixi va dini bir, tili, madaniyati va urf-odatlari o'xshash bo'lgan Turkiston xalqlarini millatiga qarab sun'iy parchalab tashlash g'oyasiga dastlab qarshilik ko'rsatib, turkistonliklarni qudratli bir ittifoqqa – Turon yoki Turkiston nomli Federativ respublikaga birlashtirish uchun harakat qildi. Moskvaning qattiq qarshilik ko'rsatishi va o'z milliy manfaatiga ega bo'lish jozibasiga uchgan milliy hudud rahbarlarining istagi Fayzulla Xo'jayev rejasining ro'yobga chiqishiga imkon bermadi [6].

Rus tadqiqotchilarning ma'lumotlari bo'yicha milliy-hududiy chegaralanish arafasida Turkiston ASSRning 5 viloyatida yashovchi aholining 88,4 foiz qismi turkiy xalqlardan iborat edi. Turkiy xalqlar Sirdaryo viloyatida 96 foiz, Farg'onada 91,7 foiz, Semirechensk viloyatida 88,5 foiz, Kaspiyorti viloyatida 85,7 foiz va Samarqandda 70,9 foiz yashagan. Turkiylardan so'ng ushbu mintaqada yashovchi forslar va tojiklar 6,9 foizni tashkil etib, bular Samarqand va Farg'ona viloyatlarida istiqomat qilishgan. Uchinchi o'rinni ruslar egallab, ularning soni umumiy aholining 3,7 foizdan oshmaydi. Keyingi o'rinda asosan Yettisuv hududida yashovchi mo'g'ul xalqlari (dunganlar, xitoylar, qalmiqlar) 0,3 foizni tashkil qilgan. Ushbu millatlar umumiy nom bilan Turkiston xalqi deb atalgan [13]. Bolsheviklar turkiy xalqlarning birligiga va hamjihatligiga zarba berish maqsadida ularni parchalab tashlash rejasi bo'lgan milliy-hududiy chegaralanish siyosatini olib bordilar.

Qirg'iz-qozoqlarga yaqin Amudaryo viloyatida yashovchi qoraqalpoqlar Turkiston ASSRda jami 134500 nafarni tashkil etgan. Qoraqalpoqlarni rus tarixchilari O'rta Osiyo va janubiy-sharqiy Yevropa dashtlari bo'ylab ko'p ko'chib yurganligini keltiradilar. Sirdaryoning quyi oqimi va Amudaryo bo'ylab o'rnini bosgan pecheneglarning avlodi bo'lmasa ham yaqin qarindoshi deb hisoblashadi. 1925-yil 19-fevralda To'rtko'lda bo'lgan I ta'sis s'ezdida Qoraqalpoq avtonom viloyati (Qozog'iston ASSR tarkibida) tashkil qilindi. 1932-yil 20-martda u Qoraqalpog'iston ASSRga aylantirildi va RSFSR tarkibiga kiritildi. Qoraqalpoq xalqining xohishi bilan 1936-yil 5-dekabrda Qoraqalpog'iston ASSR hududi O'zbekiston SSR tarkibiga o'tkazildi [19]. Qoraqalpog'iston ASSRning poytaxti –

To'rtko'1 (1925 – 1929, 1932 – 1933), Chimboy (1929 – 1933), Nukus (1933-yil 15 dekabr) [5].

Tatarlar ham turkiy xalqlar hisoblanadi. Turkistondagi tatarlarning umumiy soni 87 ming nafarni tashkil etgan. Turkistonda yashovchi tatarlarning katta qismi aralash millat vakillari hisoblanadi. 1924-yil 26-martda Xorazm Kompartiyasi Markaziy Komiteti Ijroiya byurosining majlisida RKP (b) MK O'rta Osiyo nomidan ushbu qo'mita a'zosi Qayg'usiz Otaboev "Xorazm Respublikasida Turkman viloyatining tashkil topishi to'g'risida" ma'ruza qildi. Hisobotda turmanlarning milliy farqlari va mustaqilligi hisobga olinib, ularning hudularini alohida bir huduga birlashtirish zurligi asoslab berildi. Shu yilning may oyida Butunxorazm MIKning 10-sessiyasi qarori bilan Turkman muxtor viloyati tashkil etildi, uning markazi Toshhovuz shahri etib belgilandi. Bu holat bolsheviklar tomonidan turmanlarda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni jadallashtirish, turman-o'zbek munosabatlaridagi jiddiy tavofutlarni bartaraf etish imkonini beradi deb ta'kidlandi.

1924-yil 7-sentyabrda RKP (b) O'rta Osiyo byurosining bo'lajak Turkman SSR chegaralarini tasdiqladi. Oradan ancha vaqt o'tib, 27-oktyabrda SSSR Markaziy Qo'mitasining II sessiyasi Turkmaniston SSR va O'zbekiston SSRni tuzish to'g'risida qaror qabul qildi. Turkmaniston SSR tarkibida 500 ming kishilik Turkman viloyati, Xorazm va Buxoro respublikalarining turkman viloyatlari (har ikki viloyatda ham 600 ming kishi bor edi) kiritildi. Turkmaniston Respublikasi ma'muriy hududi 5 tuman (Ashxobod, Mari, Karki, Chorjo'y, Toshhovuz), 26 tuman va 379 qishloq sovetiga bo'lingan. Ashxobod respublikaning poytaxti bo'ldi. 1925-yil 14-fevralda Ashxobodda Turkmaniston Kommunistik partiyasining (bolsheviklar) 1-ta'sis qurultoyi, ertasi kuni esa Sovetlarning Butunturkman 1-ta'sis qurultoyi ochiladi. TK (b) P ning 1-ta'sis qurultoyida uning mas'ul kotiblari etib I.I. Majlaur va Xolmurod Saxetmuradovlar saylangan .

1925-yil fevralda Sovetlarning Butunturkman 1-ta'sis qurultoyi o'z ishini boshladi. Bunda 118 nafar a'zodan iborat Turkmaniston SSR MIKni sayladi. Bu saylanganlar qatorida Qayg'usiz, Otaboyev, Nodirbay Aytakov, N.A. Paskuskiy,

Saparja Amanekov, Tachimurod Orazov, Gurbandurdi Atamiradov va boshqalar bor edi. Turkmaniston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (Oliy qonun chiqaruvchi organ) rahbari etib Nodirbay Aytakov, Xalq Komissarlar Soveti (hukumat) rahbari etib Qayg'usiz Otaboyev saylandi [3].

1926-yil 1–12-dekabrda Dushanbe shahrida Tojikiston ASSR Ta'sis sovetlarining 1-s'ezdi bo'lib o'tdi. S'ezdning birinchi kunida Tojikiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasini tashkil etish to'g'risida dekret qabul qilindi. Ya'ni bu hujjat tojiklarning avtonom respublikasi tashkil etilishini qonuniylashtirdi. Davlat boshqaruvida sobiq amaldordar, ruhoniylar antisovet harakatining sobiq rahbarlari, hatto savdogarlar ishtirok etishi qat'iy taqiqlandi va ular saylash va saylanish huquqlaridan mahrum qilindi. Tojikiston ASSR O'zbekiston SSR tarkibida bo'lganligi uchun O'zSSR MIK a'zoliciga tojikistonlik vakillardan – A.Muhiddinov, O.Oqchurin, A.Aziz, B.Dadaboyevlar o'rin oldi [14].

1926-yil 12-dekabrda Tojikiston ASSR Ta'sis sovetlarining 1-s'ezdida Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (MSK) tuzildi va butun hokimiyat unga o'tkazildi. Markaziy Ijroiya Qo'mitasi birinchi yig'ilishida MSK Prezidiumi saylandi va u o'z navbatida, respublika hukumatini – Xalq Komissarlar Sovetini tuzdi. Tojikiston ASSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raisi etib Nusratullo Maxsum (Lutfulloyev) va Xalq Komissarlar Soveti raisi etib Abduqodir Muhiddinov saylandi. 1924-yil oxirida Tojikistonda O'zbekiston Kompartiyasi (bolsheviklar) Tashkiliy byurosi tuzilgan edi. 1927-yil oktyabrda O'zbekiston KR (b) tarkibida Tojikiston viloyat qo'mitasi tuzildi. M.Xo'jayev va A.T.Shirvoniylar uning ijroiya byurosi mas'ul kotiblari etib saylandilar [12].

1925-yil mart oyida Qoraqirg'iz (Qirg'iz) avtonom viloyati tuzildi. U 1926-yil 1-fevralda RSFSR tarkibidagi Qirg'iziston ASSRga aylantirildi. Shu paytdan boshlab rasmiy hujjatlarda qoraqirg'izlar qirg'izlar deb, Qoraqirg'iz avtonom viloyati esa Qirg'iziston ASSR deb aytiladigan va yoziladigan bo'ldi. 1920-yil 4-oktyabrda Orenburgda bo'lgan Qirg'iziston (Qozog'iston) Sovetlarining I ta'sis s'ezdlarida RSFSR tarkibida Qirg'iziston ASSR (Qozog'iston ASSR) tuzilgan edi. Qirg'iziston ASSRning nomi 1925-yil aprelda Qozog'iston ASSRga o'zgartirildi.

Shu paytdan boshlab rasmiy hujjatlarda qirhizlar qozoqlar deb, Qirg'iziston ASSR esa Qozog'iston ASSR deb yuritiladigan bo'ldi.

Xullas, bolsheviklarning Turkistonni parchalash siyosati tufayli o'lkada sovet namunasidagi milliy respublikalar tuzildi. Ushbu sovet respublikasi xo'jalik imkoniyatlariga qarab ma'lum shirkatlarga birlashtirildi hamda ular sovet ittifoqining xomashyo bazalariga aylantirildi. Mazkur respublikalar ustida RKP (b) MKning O'rta Osiyo byurosi nazorat olib bordi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Икромов А. Избранные труды. 1-том. – Ташкент: Узбекистан, 1972.
2. Milliy chegaralanishdan keyin O'zbekiston (Toshkentda Oxunboboyev bilan suhbat) // Qizil O'zbekiston, 1925-yil 30-iyun. 163-son.
3. Мухамметбердиев К.Б., Оразгылыжов Я. Туркменистанын тарыхындан материаллар (1917 – 1994). – Ашхобод, 1997.
4. Ресков Б., Седов Г. Усмон Юсупов. – Тошкент: Ёш гвардия, 1977.
5. Ражабов Қ., Қандов Б., Ражабова С. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари (Энг қадимги даврдан бугунги кунгача). Тўлдирилган ва қайта ишланган олтинчи нашр. – Тошкент: O'zbekiston, 2015. – 197 б.
6. Тиллаев Ч. Халқ фарзанди // Мулоқат, 1996. – № 5.
7. Шамсутдинов Р. Истиқлол йўлида шаҳид кетганлар. – Тошкент: Шарқ, 2001.
8. Ўзбек совет энциклопедияси. 14-жилд. – Тошкент: Ўзбек совет энциклопедияси бош редакцияси, 1980.
9. O'zbekiston xalqiga yangi markaz qutlug' bo'lsin. Markaziy hukumatimiz Samarqandga ko'chib bordi // Qizil O'zbekiston, 1925-yil 5-aprel. 96-son.
10. O'z MA, R-86-fond, 1-ro'yxat, 2386-yig'ma jild, 1-3-varaqlar.
11. O'z MA, R-86-fond, 1-ro'yxat, 2384-yig'ma jild, 22-varaq.
12. O'z MA, R-86-fond, 1-ro'yxat, 2386-yig'ma jild, 3-varaq.
13. O'z MA. R-36-fond, 1-ro'yxat, 10-yig'ma jild, 11-varaq.

14. Ҳотамов Н., Довудӣ Д., Муллаҷонов С., Исоматов М. Таърихи халқи тоҷик. – Душанбе: ЭР-граф, 2015.